



## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV TAMOYILLARI**

**Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi**

*BuxDPI Maktabgacha ta’lim*

*kafedrasi o‘qituvchisi*

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta’limiy islohotlar jarayonida maktabgacha ta’lim uchun malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi, zero uzlusiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta’lim standartlari talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Shu bilan birgalikda, malakali mutaxassislar, ularning intellektual ijodiy salohiyati, kasbiy tayyorgarligi tufayli maktabgacha ta’lim tizimida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilar faoliyat samaradorligini oshirish tarbiyachilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini uzviyligini ta’milagan holda aniq maqsadga yo‘naltirilgan, izchil, tizimli va uzlusiz tashkil etiluvchi ta’lim jarayonlarini tashkil etish zaruriyatini belgilaydi. Zamonaviy pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz o‘quv-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta’minalashni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bunday yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishida ta’lim muassasasining malakali kadrlarga egaligi, metodik ta’minotning boyligi, faoliyat jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etilishi, shuningdek, tarbiyachilarining amaliy faoliyat asoslarini puxta o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish darjasini va ta’lim texnologiyalari muhim ahamiyatga ega.

Tizimli yondashuvning asosiy tushunchasi “tizim” bo‘lib, aloqa, munosabatlar, integratsiya, yaxlitlik, tashkil etuvchi qismlar kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Tizimning bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘zaro ta’sir etuvchi qismlarining majmui yaxlit obyektni tashkil etadi.

Ijtimoiy tizimning turlaridan biri MTTda tashkil etiladigan pedagogik tizim – tarbiyalanuvchilarga ta’lim va tarbiya berish, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va faoliyat samaradorligini oshirish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funktsional bog‘liq bo‘lgan mexanizmlar komponentlar majmuidan iborat bo‘ladi.

MTT tarbiyachilar faoliyati samaradorligini oshirish – tizimni o‘zgartirish, uni qayta tashkil etish va moslashtirish qaysidir qism yoki qismlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, faoliyat mazmunini takomillashtirish va h.k. Tizimli yondashuv yo‘nalishida turlicha qarashlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tizimlilik, yaxlitlilik – bunda tizimni komponentlar, o‘zaro ta’sir etuvchi qismlar va bo‘g‘inlarning o‘zaro birikishi tashkil etadi va uning funktsional vazifalarini amalgaloshirish va rivojlanirishni ta’minlaydi;

-MTT tarbiyachilari faoliyat samaradorligini oshirish jarayonlarini tashkil etishda tizimni tashkil etuvchi omillardan biri maqsad bo‘lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funktsiyasining mohiyatini belgilaydi;

-MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari tizimi uni tashkil etuvchi komponentlar majmuini ifodalab, uning o‘zgarishi ichki ziddiyatlarga bog‘liq bo‘ladi;

-MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayoni tizimi ochiq bo‘lganligi sababli tashqi muhit bilan ko‘pgina kommunikatsiyalar orqali bog‘liq bo‘ladi, tashqi muhit va mavjud munosabatlar faoliyat tizimining harakatlanishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi;

-axborotlarning tarbiyachilar faoliyat samaradorligini oshirish tizimiga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o‘zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

-MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirishga tizimli yondashuvning barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim, rahbar yoki pedagog har bir hodisa va voqeani, har bir obyektni hamda o‘z faoliyatini tizim sifatida hisoblab, tizimli yondashuv tamoyillarini qo‘llashi zarur.

MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlarini o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim sifatida tashkil etish tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko‘rsatishimiz mumkin:

-MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari ishtirokchilari hisoblangan tarbiyachilar mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni faoliyat jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

-MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;

-majmuaviylilik – MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;

-integrativlik – harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;

-o‘zaro bog‘liqlik – MTT tarbiyachilari faoliyati samaradorligini oshirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit ta’lim tizimining tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;



—kommunikativlik —ta’lim tizimining tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mактабгача та’лим ташкilotларida tarbiyachilarning kasbiy malakalrini baholash ularning malakalarini oshirib borish keng yo’lga qo‘ylgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022— 2026-yillarga m о‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi t o‘g‘risida»gi (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T: 2022. 1-81-b;

3. Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi „Bo‘lajak tarbiyachi, pedagoglarning kasbiy malakalarini baholash mexanizmi“ YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 17-noyabr 2023-yil

4. Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi „MAKTABGCHA TA‘LIMDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH SHART SHAROITLARI“ ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ <http://www.newjournal.org/> Выпуск журнала №-30 Часть–3\_ Октябрь –2023 97 2181-3187

5. Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi „Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati“. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 17-noyabr 2023-yil

6. Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi „Bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik asoslari“. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 17-noyabr 2023-yil

7. Dilnoza Jo‘rayeva O‘ktam qizi „MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA NUTQIY BILIM VA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH“. 496-500b

8. Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi „ Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | [www.openaccessjournals.eu](http://www.openaccessjournals.eu) | Volume: 3 Issue:12. 5-9p



9.,,RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK TARBIYACHI  
PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKALARINI TA'LIMDA  
BAHOLASH“.Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND  
MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE.Part7 December 29th COLLETIONS OF  
SCIENTIFIC WORKS MADRID 2023 97-100b.

7. Samievna, T. S., Mirkomilovna, R. M., & Obidovich, K. V. (2021). The professional pedagogical activity in modern education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 275-277.

8. Рахмонова, М. М., & Урмонова, Н. К. (2021). Основные Требования, История И Факты О Детской Одежде. Central Asian Journal Of Arts And Design, 2(12), 74-78.

9. Рахманова, М. М., & Анорбоев, А. (2021). МОДА САНОАТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Scientific progress, 2(7), 555-556.

10. Qizi, D. M. Q., Mirkomilovna, R. M., & Qizi, D. D. Q. Analysis Of Application TECHNOLOGY Of Ribana Knitted Fabric In The Details Of Products On The Basis Of Analysis Of Combined Outerwear Assortments. Academicia Globe, 3(02), 143-149.